

Erkin Vohidov asarlarida inkor mazmunning qo'llanilishi

Gulchehra Xolmurodovna Begmatova

gulchehra.begmatova.83@bk.ru

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohhidov ijodida inkor mazmun ifodalanishi va lingvistik mohiyati tahlil qilingan. Inkor mazmun ifodalanishi asar mazmunga ta'siri masalasi muallif tahlili asosida izohlangan. Xususan, inkor yuklama va grammatik shakllar vositasida yuzaga kelgan inkor mazmun asar tahlili asosida ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: asar, mazmun, inkor, vazifa, bo'lishsizlik olmoshi, ta'sirchanlik, tarjima asarlar matni

The use of negative content in the works of Erkin Vohidov

Gulchehra Kholmurodovna Begmatova

gulchehra.begmatova.83@bk.ru

Termez State University

Abstract: This article analyzes the expression and linguistic essence of negative content in the work of the Hero of Uzbekistan Erkin Vokhidov. The issue of the influence of the expression of negative content on the content of the work is explained based on the author's analysis. In particular, the negative content that arises through negative loading and grammatical forms is expressed based on the analysis of the work.

Keywords: work, content, negation, task, indefinite pronoun, impact, text of translated works

Erkin Vohidov o'zbek adabiyotida munosib o'ringa ega ijodkorlardan biri sifatida ma'lum. Ijodkorning asarlari nafaqat adabiyot, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham diqqatga sazovordir. Shoir va tarjimon ijodida mavzular, janrlar xilma-xilligi, bu ijodkorning ko'p qirrali shaxsligini ochib beruvchi xususiyatlardan biridir. Erkin Vohidov asarlarida inkor mazmunning qo'llanilishi va so'zlarning ishlatilishi o'ziga xos vazifa bajaradi. Bu holat ayniqsa, inkor mazmunli so'z va shakllar orqali ifodalanishda yaqqol ko'rinadi. Inkor mazmun inkor yuklamalar va so'zlar orqali ifodalanadi.

Shoirning "Kechikish" she'ridagi matn tahlil qilinsa, quyidagilar ko'zga tashlanadi.

Na to'y-u, na aza,
na ish, na bayram,
Hech qayga, hech qachon, hech bir holatda
Vaqtida kelmagan bu sho'rlik odam.[1]

Ushbu she'riy asarning birinchi satrida na inkor yuklamasi to'rt marotaba ishlatilgan bo'lib, inkor mazmunning kuchaytirilishiga xizmat qilgan bo'lsa, mazmun keyingi qatordagi bo'lishsizlik olmoshi orqali ifoda etilgan. Inkor mazmun keyingi satrlarda fe'l turkumiga oid so'zning inkor shaklini keltirish orqali berilgan bo'lib, ularning barchasi ma'lum vazifani-badiiylilik orqali ta'sirchanlikni ochib berishgan.

Erkin Vohidov inkor mazmun orqali bir qator asarlarini yaratgan Masalan, "Sen menga tegma", "Haykal", "Shoir", "Kuy avjida uzilmasin tor" she'rlarida -ma inkor shakl orqali, "Kechikish", "Ixlos" she'rlarida na inkor yuklamasi orqali inkor mazmun yoritilgan. Tilshunoslikda inkor mazmunni ifodalashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularning barchasi Erkin Vohidov ijodida o'z o'rnini topgan.

Yo'q, hech ishonmayman,
Ishongim kelmas.
Hali bor ko'ksimda umid uchquni,
Doktor,
Mana mening yuragim, oling
Va lekin qaytaring uni.
Usiz yorug' dunyo huvillab qolar,
Usiz ochilmaydi bog'larda chechak. [1,340]

Yoki shoirning "Palatkada yozilgan doston" asaridagi quyidagi satrlarda inkor mazmunning qo'llanilishini tahlil qilsak, quyidagi satrlarni ko'rib chiqsak:

Yo'q, bu doston emas,
Bular barchasi -
Zilzilaga ko'chgan
She'rlar parchasi.
Bu na chaqirig'u
Na tashviq, shior,
Plakat na darkor?[1.329]

Erkin Vohidov asarlari inkor mazmunni ifodalanish jihatdan tahlil qilinganda quyidagicha tasnif vujudga keldi:

- 1) Inkor yuklama vositasida inkor mazmunni ifodalanishi;
- 2) Inkor mazmunning ohang orqali ifodalanishi;
- 3) Bo'lishsizlik olmoshi orqali inkorni ifodalanishi;
- 4) Emas to'liqsiz fe'li orqali inkor mazmunning ifodalanishi.

Ijodkor nafaqat she'r va dostonlar, aruzda yozilgan g'azallar muallifi, balki mohir nosir, tarjimon va dramaturg hamdir. Uning "Oltin devor" komediyasi bir qator

teatrlarning sevimli asari sifatida muxlislarga taqdim etildi va etilmoqda. Bu asarda ham inkor mazmunni ifodalovchi bir qator birliklar ishlatilgan bo‘lib, asar qahramoni zargar Saidmalik nutqidan quyidagi parchani tahlil qilamiz. “Ming- ming puling bo‘lsa-yu, bitta durust mashina olib mina olmasang. To‘rtta qasr qurgundek davlating bo‘lsa-yu, ko‘z ko‘rgudek imorat qura olmasang”[1,380]. Ushbu parchada inkor mazmunni ifodalash -yu yuklamasi va bo‘lishsizlik shakli orqali ifodalangan bo‘lib, yuklama orqali inkor vazifasi bo‘rttirilganligi yanada ta’sirchanlikni oshirgan.

Erkin Vohidov ijodida tarjima asarlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, Sergey Yesenin, Silva Kapuktikyan, Mixail Svetlov, Aleksandr Tvardovskiy, Muhammad Iqbol, Gevorg Emin, Andrey Malishko, Aleksandr Blok, Mirzo G‘olib, Rasul Hamzatov kabi ijodkorlarning asarlarini mohirona tarjimoni sifatida ham milliy adabiyotimiz, tarjima va san‘atimiz hayotida mustahkam o‘rin egallagan. Masalan, Erkin Vohidovning arman shoiri Silva Kapuktikyanning “O‘g‘limga” she‘rining tarjimasini tahlil qilsak, inkor mazmunning uyg‘unlik bilan ishlatilganini guvohi bo‘lamiz.

Sen a‘lochi emassan, o‘g‘lim,
Maqtovlar ko‘p yog‘ilmas senga.
Onalar ham orzumand bo‘lib,
Havas bilan boqishmas menga.
Balki olim bo‘lmasan, bolam,
Sendan chiqmas shoir ham, biroq-
Yulduz bo‘lib porlamasang ham,
Mayli bo‘lgin yo‘llarda chiroq!

Bu misralarda ham yuqorida tasniflangan inkor mazmunni -ma bo‘lishsizlik shakli orqali ifodalash kuzatilgan, ammo mazmunga bu inkorlik ijobiy bo‘yoqdorlikni bera olganligi sevimli shoir va tarjimonimiz Erkin Vohidovning o‘ziga xos uslubi desak yanglishmaymiz. Yoki tarjimonning arman shoiri Georg Emin qalamiga mansub “Garsia Lorka haqidagi she‘rlar” turkumidagi asarlaridan qilgan tarjimasida quyidagi misralarga e’tibor qaratsak, bu o‘rinda ham inkor mazmurndan shoirona va mohirona foydalanishni kuzatamiz.

Yurt, sen yolg‘iz tuproq, makon emassan,
Yo milliy tarona, tug‘ro yo bayroq,
Ispaniya, seni ona demasman,
Sen jallod qo‘lida bo‘lsang o‘yinchoq.

Yana shu shoirning boshqa she‘ri tarjimasida quyidagi holat kuzatiladi, har bir misrada inkor mazmun beruvchi grammatik shakllar berilsa-da, bu orqali mazmunni kuchaytirish, mazmunga urg‘u berish uchun bo‘rttirilgan bo‘lsada, matnda inkor mazmun o‘rniga tasdiq mazmunni kuzatamiz:

Manmanlikka bo‘lmayin hamdam,
Izlamayin shon- shuhratni ham.

Sevdim!- demay - sevmay chinakam,
Bahor!- demay- kelmasdan ko'klam,
Yetdim!- demay- qo'ymasdan qadam.[1.274]

Grammatik shakl variantlarining tanlanishi ko'plab ichki (lisoniy) va tashqi (nolisoniy) omillarga bog'liq. Bunda til birliklarining bir- biriga ko'maklashuvi, bir- birini mustahkamlashuvi natijasida so'z leksik ma'nolarining ayri- ayri xususiyatlarini yuzaga chiqarishi kabilarda namoyon bo'ladi.[4.32]

Xulosa shuki, tarjimon, yuksak didli shoir, shaxmatchi, nurli inson Erkin Vohidov ijodini birgina maqola bilan yoritib berish mushkul, ammo ijodkorning samimiy va go'zal misralari tadqiqotchilarni o'ziga jalb etib, muhim qirralarni, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg'unligini ta'minlaydi. Ijodkor asarlari va tarjimalarida inkor mazmunni ifodalovchi vositalardan mazmun ta'sirchanligini oshirish va badiiyligni oshirish maqsadida mohirona foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Vohidov. Ishq savdosi. Toshkent, 2000.
2. Vohidov Erkin. Kuy avjida uzilmasin tor. Toshkent, 2011
3. Mengliev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T., 2008.
4. Ernazarova M. Grammatik ma'no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2018.